

ABDURAUF FITRATNING ILMIY VA SIYOSIY FAOLIYATI

Oltiboyeva Gavhar Nuraliyevna

Buxoro Davlat universiteti Fizika matematika axborot texnologiyalari fakulteti amaliy matematika yo'nalishi 1-1PMK24 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14784355>

Annotatsiya. Sharq falsafasi atamasi bilan Osiyo qit'asida paydo bo'lgan falsafiy oqimlar, qarashlar majmuasi nomlanadi. Sharq falsafasiga hind, xitoy, fors, yapon, koreys hamda O'rta Osiyo falsafasi kiradi. Bu ro'yxatga ba'zan Bobil va Arab falsafasi ham kiritiladi, biroq bular g'arb falsafasiga ham taalluqlidirlar.

Kalit so'zlar: klassik adabiyot, yurt qayg'usi, publitsistik faoliyat, ilmiy ishlar.

SCIENTIFIC AND POLITICAL ACTIVITY OF ABDURAUF FITRAT

Abstract. The term "Eastern philosophy" refers to a set of philosophical currents and views that appeared on the Asian continent. Eastern philosophy includes Indian, Chinese, Persian, Japanese, Korean and Central Asian philosophy. Babylonian and Arabian philosophy are sometimes included in this list, but they also apply to Western philosophy.

Key words: classical literature, national grief, journalistic activity, scientific works.

НАУЧНАЯ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АБДУРАУФА ФИТРАТА

Аннотация. Термин «восточная философия» относится к совокупности философских течений и взглядов, возникших на азиатском континенте. Восточная философия включает в себя индийскую, китайскую, персидскую, японскую, корейскую и среднеазиатскую философию. В этот список иногда включают вавилонскую и арабскую философию, но они также применимы и к западной философии.

Ключевые слова: классическая литература, народное горе, журналистская деятельность, научная работа.

KIRISH: Ko'pgina jamiyatlar falsafiy muammolarni ko'rib chiqishdi va boshqa jamiyatlar ishlari asosida o'z falsafiy an'alarini qurishdi. Masalan, Yaqin Sharq falsafasi G'arb falsafasi ta'siri ostida bo'ldi. Rus, Yahudiy, Islomiy, Afrika va ba'zi Lotin Amerikasi falsafiy an'alarini G'arb falsafasidan ta'sirlanishdi; biroq, o'zlarining aslliklarini ham yo'qotishmadi. Bu an'alar orasidagi farqlar xush ko'rilgan tarixiy faylasuflar, g'oyalar, uslublar yoki tillar bilan aniqlanadi. Ularni bir-biriga tegishli metodlar bilan o'rgansa bo'ladi va ular orasida sezilarli umumiyliklar bor.

Ilk falsafiy ta'limotlar qadimiy Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda paydo bo'lgan, keyin G'arb mamlakatlariiga yoyilgan. Qad. Hindistondagi falsafiy maktablar 2 turga bulinib, biri vedalaraxm kelib chiqqan va ularga suyanuvchi maktablar (vedanta, yoga,

vaysheshika, nyaya, sankxya), ikkinchisi vedalarni rad etuvchi maktablar (jaynizm, buddizm, lokoyata) xisoblanadi. Qadimgi Xitoydagi dastlabki falsafiy ta'limotlar miloddan avvalgi 7-asrda vujudga kelgan. U Qad. Xitoy yozma manbalarida uchrab, bu manbalarga „Qo'shiqlar kitobi“, „Bahor va kuz“ kabi qad. yodgorliklar va Konfutsiynnng „Aforizm“larini, daosizmni kiritish mumkin

Abdurauf Fitrat 1886, Buxoro shahri, Buxoro amirligi 4-oktyabr, Toshkent shahri, O'zbekiston SSR — o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o'zbek professori. Jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatining tarafdori. Turkiyada ta'lim olgan. Inqilobga qadar O'rta Osiyon Rossiyanadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo'lgan. Turkiyadagi "Yosh turklar" harakatidan ilhomlanib, Buxoroda „Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma'naviy rahnamosiga aylangan. Do'sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germanianing bir qator oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborgan. 1886-yilda Buxoro shahrida ziyoli oilasida tug'ilgan, adibning otasi savdogarchilik bilan shug'ullangan bo'lib, 1918-yilgacha Qashqarda turib qoladi. Yosh Abdurauf asosan onasi Mustafo Bibi(Bibijon) tarbiyasida qoladi, u 1908—1913-yillarda Turkiya dorilfununida o'qiyotganda uning zukko, bilimdonligi professor-o'qituvchilarni hayratga solidi. Unga Fitrat — Donishmand taxallusini beradilar. Fitratning dastlabki maqolalari „Hikmat“ jurnalida bosilgan. O'zi esa Rossiya imperiyasidan kelgan muhojirlar bilan aloqa bog'lagan. Fitratning Usmonlilar poytاختida o'tkazgan to'rt yili Bolqon urushi va Yosh turklarning konstitutsiyaviy inqilobiga to'g'ri keldi. Fitrat o'qishni Istanbulda davom ettirib yurgan kezlarida, hamyurtlari bilan birqalikda,, Buxoro ta'limi maorif jamiyatini tuzgan. Bu jamiyat buxoroliklarning o'zaro moddiy-ma'naviy uyushmasi vazifasini bajargan hamda Buxoro va Turkiston maorifining olg'a siljishiga doir bir qator ishlarni amalga oshirgan.

Bu davrda Turkiya "Yosh turklar" inqilobidan mast davrni o'z boshidan kechirardi.

Turkiyadagi bunday inqilobiy muhit albatta yosh Fitratga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. U siyosat maydoniga sho'ng'ib ketdi. Bu yerda Fitrat Sharq adabiyoti, san'ati, tarixini chuqur va atroflicha o'rganadi. Ilg'or taraqqiyparvar turk adabiyoti vakillari, turk adabiyoti orqali esa G'arb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. G'arb va Sharq xalqlari madaniyati, adabiyotlari o'rtasidagi farqlarni o'z ko'zi bilan ko'radi, uning sabablarini teranroq anglaydi.

Abdurauf Fitrat (1886–1938) O'zbekistonning atoqli ma'rifatparvarlari va jadidlar harakatining asoschilaridan biri bo'lib, sharq falsafasiga va umuman, ma'rifatparvarlik g'oyalariga muhim hissa qo'shgan. Uning sharq falsafasiga qo'shgan hissasi bir necha narsani o'z ichiga oladi. Fitrat o'z asarlari orqali islom falsafasi, Sharq adabiyoti va tarixini chuqur o'rganib, ularning xalq o'ngiga yaqinlashtirishga harakat qilgan.

U qadimiy sharq mutafakkirlari, rasmlari, Ibn Sino, Al-Farobi, Beruniy kabi olimlarning ilmiy merosini ommalashtirish. Fitratning asarlarida ilm-fan va ma'rifatning insoniyat hayotidagi o'rni keng yoritilgan. U sharq falsafasining asosiy g'oyalarini o'z zamonasining ijtimoiy-madaniy muammolariga moslashtirib, xalqni ma'rifat va islohotga chorlagan. uning "Hind sayohati", "Oila", "Chin sevish" kabi asarlarida Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro ta'siri va ma'rifatning ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Fitrat islam falsafasini faqat diniy doiradan tashqariga chiqarib, uni ijtimoiy taraqqiyot sifatida ko'rsatgan. U islomdagi adolat, ilm olish va ahloqiy me'yormanni targ'ib qilib, ularning milliy uyg'onish uchun zamin deb.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topishi bilan Fitrat 1921-yilda Buxoroga taklif qilinadi va shu-yildanoq maorif noziri vazifasida ish boshlaydi. 1922-yilda xorijiya (tashqi ishlar) noziri, Xalq xo'jaligi Kengashi raisi, Markaziy Ijroya Qo'mitasi raisi o'rribbosari, Xalq nozirlari sho'rosi raisi o'rribbosari, Hukumat plan va smeta tashkiliy hay'atining raisi, BXSR mehnat kengashining Prezidium a'zosi va boshqa lavozimlarda xizmat qildi. Ikki yil davomida Buxoro Xalq Respublikasida ta'lif vaziri va iqtisodiy rivojlanish kengashining rahbari sifatida faoliyat yuritgan. U shu davrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mablag'lari hisobiga 70 nafar turkistonlik istiqbolli yoshlarning Germaniyaga borib o'qishi, Buxoroda Sharq musiqasi maktabining tashkil etilishi, fan va madaniyatga doir xalq qo'lida sochilib yotgan noyob qo'lyozmalarni to'plashda tashabbuskor bo'ldi. Fitratning sa'y-harakatlari bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasida turk (o'zbek) tili davlat tili deb e'lon qilindi. Davlat teatri tashkil qilinib, bu teatrda ishslash uchun Toshkentdan Mannon Uyg'ur va Cho'lpon, vaqf ishlarini boshqarish uchun esa Munavvar Qori Abdurashidxonov taklif etildi (1921). Ammo 1923-yilda Yan Rudzutak boshchiligidagi Moskvadan kelgan komissiya Fitratni ishdan olib, Rossiya,, chaqirib olingan“ deb e'lon qildi va Fitrat 1923—1927-yillarda Moskvadagi Sharqshunoslik instituti (1921-yilgacha Sharq tillari instituti deb nomlangan)da ishladi, ilm bilan shug'ullandi. Leningrad Davlat universitetining Sharq fakultetida Turk, arab, fors tili va adabiyoti, madaniyatidan talabalarga dars berdi.

Leningrad Davlat universiteti professorligiga saylandi. "Abulfayzxon", "Bedil", "Qiyomat", "Shaytonnig Tangriga isyoni" kabi asarlar yozib, chop ettirdi. 1927-yilning boshida Rossiyadan qaytgach, 1937-yilga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti (hozirgi Samarqand Davlat universiteti) hamda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida faoliyat ko'rsatadi. Fitrat o'z hayoti davomida yuzlab ijtimoiy-publisistik maqolalar, o'nlab ijtimoiy-siyosiy va ilmiy risolalar yaratdi. U birgina Turkistonda emas, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya matbuotida ham faol ishtirok etdi. Fitratning adabiy merosi rang-barang.

U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o'zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she'r tuzilishining isloh etilishi, adabiy

realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy muammolarning o'zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo'shdi.

Fitratning bizgacha yetib kelgan o'zbek tilidagi she'rlari, 1917- va undan keyingi davrlarga oid Ma'lumki, fevral inqilobidan keyin Turkiston xalqlarining mustaqillika erishishlari uchun juda qulay fursat tug'ilgan. Fitrat shu davrda xalqni mustamlakachilik kishanlarini parchalab, milliy istiqlol uchun kurashga da'vat etuvchi she'rlar yozishga kirishgan. Ammo an'anaviy aruz vazni, uning nazarida, bunday zamonaviy g'oyani ifodalash, xalqni oyoqqa turg'azish va safarbar etish kuchiga ega emas edi. Shuning uchun ham Fitrat turk va tatar she'riyatlarida shakllangan, o'zbek xalq og'zaki she'riyatida ayrim unsurlari bo'lgan sochmani milliy adabiyotimizga olib kirdi. O'z ona diyorini ozod va hur ko'rishni orzu qilgan shoir „Yurt qayg'usi“ deb nomlangan bir she'r va to'rtta sochma yozib, ularda hurriyat uchun kurash g'oyasini baralla kuylaydi. Ijodkor mazkur sochmalarida Turkistonni xo'rangan va xorlangan Ona obrazida tasvirlab, bu jabrdiyda Onani zulmkorlardan xalos etish uchun Amir Temur singari insonlarni qo'msaydi.

U 1917-yillarda "Mirrix yulduziga", "Shoir" kabi she'rlarni yaratib, Turkistonni endi "qizil mustamlakaga"ga aylantira boshlagan bolsheviklarga va ular barpo etayotgan tuzumga nafrat tuyg'usini ifodaladi. Bundan tashqari Fitrat barmoq vaznida yozilgan mazkur she'rlari bilan xalq og'zaki she'riyatining mulki bo'lgan barmoqni isloh etib, Cho'lpion bilan birga uni yozma adabiyotga olib kirdi va unga yangi hayot bag'ishladi. Fitrat dramaturgiysi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U 1916-yildan boshlab teatr uchun ko'plab asarlar yaratdi. Ammo uning nafaqat 1916-1918-yillarda yozgan "Begijon", "Qon" "Abo Muslim", "O'gizzon" singari pyesalari, hatto 1934-yilda yozgan "To'lqin" opera librettosi ham bizgacha yetib kelmagan.

Ma'lumki, Fitratning 5 pardali „Begijon“ pyesasida dehqonlarning xon zulmiga qarshi ko'targan isyonlari tasvir etilgan. "Temur sag'anasi" pyesasida esa muallifning "Yurt qayg'usi" sochmasidagi istiqlol uchun kurash g'oyasi o'zining badiiy tajassumini topgan. Fitrat o'shayillarda yozgan boshqa sahma asarlarida ham tarixiy o'tmishga murojaat etganiga qaramay, bolsheviklarning Turkistonda olib borgan g'ayrimilli siyosatiga faol munosabat bildirib, zulm va zo'ravonlikka asoslangan "yangi tuzum"ni keskin qoralagan. Fitrat ijodining shu davrdagi yetakchi motivi — bolshevizmga qarshi kurash g'oyasi "Chin sevish" (1920) va "Hind ixtitolchilari" pyesalarida ayniqsa yorqin ifodalangan. Dramaturg Turkistonda Sho'ro hokimiyati-yillarida sodir bo'layotgan fojeali voqealarni Britaniyaning mustamlakasi bo'lgan Hindistonga ko'chirib, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashayotgan hind istiqlolchilari siymosida, ma'lum ma'noda, o'z vatandoshlari obrazini yaratdi.

Javoharlal Neruning e'tirof etishicha, Fitratning bu asarlari hind xalqining mustamlakachilikka qarshi olib borgan kurashiga kuch va madad bergen. Sharq falsafasi ming yillar davomida inson tafakkurining chuqr mushohadalari, axloqiy va diniy qarashlar majmuasini

ifodalaydi. Bu falsafiy yo‘nalish asosan haqiqatni, adolatni, ilohiy va insoniy munosabatlarni anglashga qaratilgan. Abdurauf Fitrat bu qadimiy falsafiy maktablarning merosini o‘rganib, ularni o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolariga moslashtirishga harakat qildi.

Fitrat Sharq mutafakkirlarining, xususan, Ibn Sino, Al-Farobiy, Jaloliddin Rumiy, Al-Buxoriy kabi buyuk allomalarining asarlarini chuqur tahlil qilib, ularning ma’rifat, axloq va ilmga oid g‘oyalarini xalq o‘rtasida keng yoydi. Fitratning fikricha, Sharq falsafasining asosiy vazifasi insonni kamolot sari yetaklash, uning axloqiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashdir. Fitratning sharq falsafasiga qo‘shtan eng katta hissalaridan biri uning jadidchilik harakatidagi faoliyati bilan bog‘liqidir. Jadidlar Sharq va G‘arb madaniyatining eng yaxshi jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali jamiyatni ma’rifatga chorlashni maqsad qilgan edilar. Fitrat bu harakatning asosiy nazariyotchilaridan biri sifatida Sharq falsafasining g‘oyalarini yangi davr talablariga moslashtirishga muvaffaq bo‘ldi Abdurauf Fitratning sharq falsafasiga qo‘shtan hissasi uning ilmiy, badiiy va ma’rifiy faoliyatida yaqqol ko‘rinadi. U Sharqning boy madaniy va falsafiy merosini zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirib, jamiyatni ma’naviy va madaniy yuksalish sari yetaklashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Fitratning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, xalqning ma’naviy kamoloti uchun bebaho manba hisoblanadi.

Bulardan tashqari Fitrat o‘zbek tilining grammatikasini o‘rganish ishlarini boshlab bergen va shu soha rivojiga katta hissa qo‘shtan. U 1918-yilda Shokirjon Rahimiya va Qayum Ramazon bilan hamkorlikda “Ona tili” darsligini yaratdi. 1921-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Til va imlo qurultoyida Fitrat o‘zbek tilining sofligini ta’minlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qancha takliflarni o‘rtaga tashladi. Olim o‘zbek tili morfologiyasi va sintaksisiga bag‘ishlangan bu asarlari bilan o‘zbek tili grammatikasini ilmiy asosda o‘rganish ishiga tamal toshini qo‘ydi.

Fitratning tilshunoslik sohasidagi katta xizmatlaridan yana biri uning 20-yillarda qadimiy turkiy til, jonli xalq tili va shevalarga tayangan holda, ilmiy-adabiy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushuncha hamda hodisalarini ifodalash uchun o‘zbek tilining lug‘at fondiga yangi so‘zlar hamda atamalarini olib kirganligidadir.

Olim "Eng eski turk adabiyoti namunalari", "O‘zbek adabiyoti namunalari" tazkiralarini tuzib, milliy adabiy merosimizning eng qadimgi davrdan so‘nggi davrlarga qadar yaratilgan namunalarini to‘plib, muayyan tizimga soldi ("O‘zbek adabiyoti namunalari"ning ikkinchi jildi noma'lum sabablarga ko‘ra e’lon qilinmagan). Qutadg‘u bilig“ singari o‘zbek yozma adabiyotining xalq orasida sochilib yotgan noyob yodgorliklarini qo‘lga kiritish, o‘rganish va chop etishga intildi. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalarini ilk bor o‘rganib, “Bedil”, “Navoiyning forsiy shoirligi va uning forsiy devoni to‘g‘risida”, “Qutadg‘u bilig”, “Ahmad Yasaviy”, “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar”, “Hibbat ul-Haqoyiq”, “O‘zbek shoiri Turdi”, “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash”, “Muhammad Solih”, “Fors

shoiri Umar Xayyom”, “Mashrab”, “Farxodu Shirin” dostoni to‘g‘risida kabi katta ilmiy qimmatga ega risola va maqolalar yaratdi. Fitrat bu tadqiqotlari bilan o‘zbek adabiyotshunoslik mакtabiga poydevor qo‘ydi. “She’r va shoirlig”, “Adabyot qoidalari”, “San’atning manshai”, “Aruz haqida” singari maqola va risolalari bilan adabiyot nazariyasi faniga asos soldi.

Fitratning san’atshunoslikka oid xizmatlari ham tahsinga sazovordir. U 1921-yil Buxoroda Sharq musiqasi mакtabini tashkil etib, bu mакtabning birinchi direktori lavozimida ishlaydi.

Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari (sozanda, xonandalar) bilan birga Viktor Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etdi. U shu vaqtidan boshlab “Shashmaqom” kuylarini to‘plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Fitratning tashabbusi bilan ota Jalol va ota G‘iyosdan Buxoro Shashmaqomi V. Uspenskiy tomonidan ilk bora notaga olinib, nashr etildi. Fitrat “Shashmaqom”, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” maqolalari va “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasi bilan XX asr o‘zbek musiqashunoslilik fanini boshlab berdi. 20-yillarning 2-yarmidan boshlab vaziyat o‘zgaradi. Sovet davlati mustahkam o‘rnashib borgan sari erkin fikrlashlar kamayib bordi. Ziyolilarni, ayniqsa jadidlarni qoralash boshlandi. Har qanday hodisaga sinfiy-partiyaviy yondashish nuqtayi nazari paydo bo‘ldi.

1929-yili “Qizil O‘zbekiston” ro‘znomasining 3-sonida J.Boybo‘latov qalamiga mansub “O‘zbek adabiyotida chig‘atoychilik” nomli maqola nashr etilgan. Maqola Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” asariga tanqidiy ruhda yozilgan. Ya’ni Fitrat marksizmni inkor qilishda, o‘tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g‘oyalari tashviqotida ayblanadi. Maqola muallifi bo‘lgan Fitrat va kitobga so‘zboshi yozgan Otajon Hoshim matbuotda qarshi javob raddiya bilan chiqadilar. 1930-yildan esa unga siyosiy ayblovlar qo‘yila boshlandi. Yozgan bir qancha ishlari uning „aksilsho‘roviv“ faoliyatiga „ashyoviv dalil“ sifatida tilga olindi.”Sharq haqiqati” ro‘znomasining 1930-yilgi 180-,182-,183-sonlarida J.Boybo‘latovning „O‘zbeklarning adabiy merosi“ bayrog‘i ostidagi panturkizm“ sarlavhali maqolasi bosildi. J.Boybo‘latov yana Fitratning iziga tushdi. 1923-yildagi „ayb“larini qo‘zg‘adi, sudga tortilmay qolganini eslatdi, shoirni „sinfiy dushman“ deb e’lon qildi. „O‘zbeklarning adabiy merosi“ asarini „Qur’on“ni nashr qilish proletariat ishiga qanchalik xiyonat bo‘lsa, mazkur „O‘zbek adabiyoti namunalarining chop etilishi ham shunchalik jinoyatdir“, degan xulosa chiqardi. Ushbu maqolaning ruscha tarjimadagi bir nusxasi keyinchalik Fitratni ayblovchi hujjat sifatida uning „Jinoiy ishi“ga ilova qilingan. Matbuotdagi ayblovlarga qaramasdan F.Xo‘jayev 1923-yildagi singari do‘smini yana bir marta saqlab qoldi. 1937-yilning 24-apreliga kelib Abdurauf Fitrat O‘zbekiston prokurorining ko‘rsatmasi bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi to‘rtinchi bo‘limining boshlig‘i Davlat Xavfsizligi leytenant Oq‘abekov tomonidan hibsga olindi.

Fitrat ilg‘or demokratik g‘oya va fikrlari uchun ko‘pchilik jadidlar qatorida shakkoklik va isyonkorlikda ayblandi.

Chor ma'murlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura humron bo'lgan sho'rolar davrida esa, millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, „xalq dushmani“ degan tuhmatlar bilan aybladilar. Professor H.Yoqubovning hikoya qilishicha, Fitratni 1937-yilgacha uning do'sti Fayzulla Xo'jayev o'z himoyasiga olib kelgan. 1937-yilda ko'pchilik qatori Fitrat ham NKVD tomonidan qamoqqa olingan. Iosif Stalining 1938-yil 28-martdagi „Otuvga e'lon qilinganlar ro'yxati“ga tushgan.

XULOSA: 1991-yil 25-sentabrda Abdurauf Fitrat o'zbek dramaturgiyasini rivojlantirishdagi, ralistik adabiy tanqidchilik hamda adabiyotshunoslik matabiga asos solishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respubblikasi Davlati mukofoti berildi. Mustaqillik ordeni berildi. Toshkent va Buxoroda Fitrat nomidagi ko'chalar, maktablar ochildi. Buxoro shahrida Fitrat bog'i va uy-muzeyi tashkil qilindi (1996). Buxoro shahrida Fitrat haykali o'rnatildi. 1996-yilda Abdurauf Fitrat tavalludining 110-yilligi mamlakat miqyosida nishonlandi, „O'zbekiston pochtasi“ tomonidan Fitratga bag'ishlangan pochta markalari chiqarildi.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1938-yil 4-oktyabr kuni Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumani Bo'zsuv qirg'og'idagi qatlgohma otib o'ldirildi. Uni o'limga mahkum qilish haqidagi sud qarori bir kundan keyin ya'ni 1938-yilning 5-oktyabrida imzolandi. 1963-yil Iosif Stalin vafotidan so'ng Fitrat nomi oqlandi.

REFERENCES

1. "Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari" Orzigel Hamroyeva "Bookmany print" nashriyoti, 2023.
2. Fitrat, Eng eski Turk adabiyoti namunalari – Toshkent Samarqand, 1927 // Fitrat, Eng eski Turk adabiyoti namunalari / Nashrga tayyorlovchi O. Xamroyeva. – Toshkent, 2008. 195 b
3. Fitrat. Tanlangan asarlar. 4 jiddlik, 1-jild. Toshkent: manaviyam, 2000. 188-bet.
4. Fitrat. Tanlangan asarlar. 4 jiddlik, 2-jild. Toshkent: manaviyam, 2000. 208-bet.
5. Fitrat. Tanlangan asarlar. 4 jiddlik, 3-jild. Toshkent: manaviyam, 2000. 256-bet.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar. 4 jiddlik, 4-jild. Toshkent: manaviyam, 2000. 254-bet.
7. G'aniyev I. Fitrat. Etiqod, ijod. – Toshkent, 1994-246- bet.
8. Boltaboyev X. Mumtoz so'z qadri. – Toshkent: Adolat, 2004. 192- bet
9. Abdurauf Fitrat "Chin sevish" G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1996-yil